

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

TAHRIR HAY'ATI

I. RUSTAMBEKOV

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir o'rinbosari

O. CHORIYEV

Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i – mas'ul muharrir

A. SAIDOV

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor

EDVARD JUCHNIEWICZ

Polshaning Gdansk universiteti Huquq va boshqaruv fakulteti Moliyaviy huquq kafedrasida professori, huquq doktori

AMMAR YOUNAS

TDYU Biznes huquqi kafedrasida o'qituvchisi

O. OKYULOV

TDYU Fuqarolik huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

M. AMINJONOVA

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. RAHIMOV

TDYU Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

O. NARZULLAYEV

TDYU Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

B. MURODOV

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Tergov faoliyati kafedrasida boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

A. MUXAMEDJANOV

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. NIYAZOVA

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi



Nashriyotchi:

giz Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH

Ushbu nashr GIZning "Markaziy Osiyoda huquqiy davlatchilikni qo'llab-quvvatlash" dasturi ko'magi doirasida chop etildi.

Dastur Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) tomonidan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) buyurtmasi asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur jurnalning maxsus sonida keltirilgan ma'lumotlar, xulosalar, fikrlar va talqinlar mualliflarning fikrlaridir, ular hech qanday tarzda GIZ yoki BMZ nuqtayi nazarini aks ettirmaydi.

Bepul tarqatish uchun mo'ljallangan.

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
правовой научно-практический журнал

REVIEW OF LAW SCIENCES
legal scientific-practical journal

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agent-

ligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-919X
E-ISSN 2181-1148

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

5 **КОПЕЦКИ КРИСТОФ**
Приветственное слово

6 **ЦИКО ЯН**
Приветственное слово

9 **САЙДУЛЛАЕВ ШАХЗОД АЛИХАНОВИЧ**
Приветственное слово

11 **СУЛТАНОВ РАВШАН АДILEВИЧ**
Приветственное слово

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

13 **АЛАНАЗАРЗОДА ШАРОФ**
Законодательство об административных
процедурах и судопроизводстве Республики
Таджикистан: опыт и перспективы реформирования

19 **ПУДЕЛЬКА ЙОРГ**
Комментарий к закону и его роль в судебной
практике: взгляд немецкого судьи

26 **ДОСМАМБЕТОВА ЧОЛПОН МОНОЛДОРОВНА**
Применение административными судами
Кыргызской Республики норм законодательства
об административных процедурах, связанных
с досудебным порядком обжалования

35 **ДУЙСЕНОВА ЖАНАР МУХАМЕДКАЛИЕВНА**
Судебная практика проверки соблюдения
административной процедуры

40 **YUSUPOV SARDORBЕК BAHODIROVICH**
O'zbekistonda ma'muriy tartib-taomillarning asosiy
prinsiplarini qo'llashning ayrim jihatlar

50 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЪЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционные основы государственного
управления: некоторые аспекты законодательной
конкретизации

59 **NEMATOV JO'RABEK NEMATILLOYEVICH**
O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar
to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganiga 6 yil to'lishi
arafasida: asosiy yutuqlar va muammolar

- 72 **ЛИ АДИК**
Система органов государственного управления в сфере предпринимательской деятельности
- 80 **ХВАН ЛЕОНИД БОРИСОВИЧ**
Роль научных позиций в сфере публично-правового регулирования и их перспективы в Республике Узбекистан
- 86 **JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy-huquqiy munosabatlarda mutanosiblik prinsipining o'ziga xos o'rni va uning huquqiy ahamiyati
- 95 **TURABOYEV IXTIYORJON QOBILOVICH**
Soliqlarni kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashning o'ziga xos xususiyatlari
- 102 **SAMIG'JONOV FAZLIDDIN RAFKATOVICH**
Budjet jarayoni va uning bosqichlari
- 110 **AXROROV ADXAMJON ASRORKUL O'G'LI**
Ekologiya sohasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni sud tomonidan hal qilishning ayrim jihatlari
- 118 **G'OZIYEV KOZIMBEK JOVLONBEKOVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari ma'muriy huquqning subyekti sifatida
- 129 **RAJABOVA KARIMA QAHRAMONOVNA**
Saylovga oid nizolarni hal etish usullari
- 135 **RAXMONOV OTABEK QO'CHQOR O'G'LI**
Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish shakllari va turlarini tasniflash va tizimlashtirish
- 143 **JURAEVA ASAL BAKHTIYEVNA,**
ABDIRAKHIMOV ISLOMJON ILKHOMJON UGLI
A brief analysis of uzbekistan bit practice: investor and state dispute resolution
- 156 **XUDOYBERGANOVA MAVJUDA HAMROQULOVNA**
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashning huquqiy asoslari
- 164 **АВЕЗОВА ЭЛЕОНОРА ПАРАХАТОВНА**
Институт социальной защиты государственных гражданских служащих: теоретические и методологические подходы
-
- 164 **СПИСОК ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ АКТОВ СТРАН ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА РЕГУЛИРУЮЩИХ ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРОЦЕДУР**
-

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2024.8.sn./SZLX8698>
UDC: 347.73(045)(575.1)

KORPORATIV HUQUQ SUBYEKTLARINI QAYTA TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARINI TASNIFLASH VA TIZIMLASHTIRISH

Raxmonov Otabek Qo'chqor o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0001-7511-2216
e-mail: otabekrakhmon@gmail.com

ЎЗАЧАСИ. Mamlakatimizda korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lsa-da, qayta tashkil etishning asoslari, usullari, turlari va tartibi turli xilligi va murakkabligini nazarda tutib ular muayyan bir tizimga solinmaganligini, sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishni va ularning amal qilish mexanizmi izchilligini oshirishni talab qiladi. Ushbu maqolada korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olib, korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etishning shakllari va ularni amal qilishi huquqiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Maqolada korporativ huquq subyektlarining qayta tashkil etilish va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi asosida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tahlil etilgan.

ҚИЙОЎНИ qayta tashkil etish, qo'shib yuborish, ajratish, ajratib chiqarish, birlashish, yuridik shaxs.

КЛАССИФИКАЦИЯ И СИСТЕМАТИЗАЦИЯ ФОРМ И ВИДОВ РЕОРГАНИЗАЦИИ СУБЪЕКТОВ КОРПОРАТИВНОГО ПРАВА

Рахмонов Отабек Кучкар угли,
преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»
Ташкентского государственного юридического университета

Анотация. В нашей стране принято законодательство, регулирующее отношения, связанные с реорганизацией юридических лиц, но с учётом многообразия и сложности оснований, методов, видов и процедур реорганизации необходимо привести их в определённую систему, усовершенствовать нормативно-правовые документы, относящиеся к данной сфере, и повысить системность механизма их реализации. В данной статье с учётом специфики реорганизации субъектов корпоративного права и исходя из вышеперечисленных факторов анализируются формы реорганизации субъектов корпоративного права и их деятельность. Также в статье автор с научной точки зрения анализирует и раскрывает понятие реорганизации субъектов корпоративного права и её особенности. В статье с научной, теоретической и практической сторон, на основе национального законодательства Республики Узбекистан анализируется правовое регулирование отношений, связанных с реорганизацией и ликвидацией субъектов корпоративного права.

Ключевые слова: реорганизация, слияние, разделение, выделение, объединение, юридическое лицо.

CLASSIFICATION AND SYSTEMATIZATION OF FORMS AND TYPES OF REORGANIZATION OF SUBJECTS OF CORPORATE LAW

Rakhmonov Otabek Kuchkar ugli,

Tashkent State University of Law,
Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law,

ЎЎЎЎЎЎ Legislation regulating relations related to the reorganization of corporate law entities has been adopted in our country, but taking into account the diversity and complexity of the foundations, methods, types, and procedures of reorganization, it is necessary to put them into a specific system, improve the legal documents related to the field, and increase the consistency of the mechanism of their implementation. In this article, taking into account the specific aspects of the reorganization of corporate law subjects and based on the above factors, the forms of reorganization of corporate law subjects and their activity are analyzed. Also, in the article, the author, with a scientific analysis, reveals the concept of reorganization of corporate law subjects and its specific features. In the article, the legal regulation of relations related to the reorganization and cancellation of corporate law subjects is analyzed scientifically, theoretically, and practically based on the national legislation of the Republic of Uzbekistan.

ЎЎЎЎЎЎ: reorganization, merger, division, separation, consolidation, legal entity.

Kirish

Korporativ huquq subyektlarining tashkil etilishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq munosabatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega. Ushbu subyektlarning qayta tashkil etilishi har doim o'ziga xos hayotiy dolzarblikni vujudga keltiradi. Chunki bir huquq subyektining barham topishi va uning o'rniga yangi huquq subyektining vujudga kelishi yoki mol-mulkning keyingi taqdirini hal qilish masalalari har bir davlat uchun hamma vaqt muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Zero, ushbu munosabatlarning mamlakatda qanday tartibga solinganiga qarab, davlatning iqtisodiy rivojlanishini belgilab olish mumkin.

Mamlakatimizda korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lsa-da, qayta tashkil etishning asoslari, usullari, turlari va tartibi turli xilligi, murakkabligini nazarda tutib ularning muayyan bir tizimga solinmaganini, sohaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirishni va ularni amal qilish mexanizmi izchilligini oshirishni talab qiladi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot doirasida huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida

korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari, korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etishning shakllari, turlari va ularning amal qilishi huquqiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, mantiqiylik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida korporativ huquq subyektlarining qayta tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega bo'lgan voqelik sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida korporativ huquq subyektlarining barqaror faoliyat yurita olmasligi, talab va taklif, raqobat qonuniyatlariga bardoshliligi yuqori emasligi kuzatilmoqda. Masalan, 2005-yil 1-yanvardan 2006-yil 1-yanvargacha Toshkent shahri bo'yicha 3501 ta yuridik shaxs tugatilgan bo'lib, shulardan 3174 tasi mikrokorxonalar, 258 tasi kichik korxonalar va 69 tasi boshqa turdagi korxonalar bo'lgan. 2007-yil 1-yanvaridan 2008-yilning 1-yanvarigacha esa tugatilgan yuridik shaxslarning soni 4591 tani tashkil etgan.

Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish, ular bekor bo'lishining asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Qayta tashkil etish xo'jalik yurituv subyektlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq vazifani bajarish maqsadida amalga oshiriladi (Diver, 2002).

Ko'pchilik mualliflar qayta tashkil etish korporativ huquq subyektlarining bekor bo'lish usuli ekanligini ta'kidlashsa, ba'zilar qayta tashkil etishning barcha usullari ham korporativ huquq subyektlarini bekor qilish hisoblanmasligini ta'kidlashadi.

Masalan, G.S. Shapkina fikricha, qayta tashkil etishning uchta shaklida (qo'shib yuborish, ajratish, ajratib chiqarishda) korporativ huquq subyektlarini bekor qilish va uning huquqiy vorisi bo'lgan yangi yuridik shaxsning tashkil etilishini nazarda tutadi, ayni vaqtda esa qo'shib olishda faqatgina qo'shib olinayotgan subyekt tugatiladi, o'zgartirishda esa faqat yangi subyekt vujudga kelishi ko'zda tutiladi (Shapkina, 2002).

Ta'kidlash lozimki, qayta tashkil etish tushunchasiga ba'zi mualliflar doktrinal ta'rif berishga harakat qilishadi. Masalan, A.V. Sotskovaning fikricha, qayta tashkil etish – bir yoki bir necha yuridik shaxs (huquqiy o'tmishdosh) huquq va majburiyatlarini huquqiy o'tmishdoshning bekor bo'lishi va huquqiy vorisning vujudga kelishi bilan bog'liq holatda boshqa yuridik shaxs yoki shaxslarga (huquqiy voris) huquqiy vorislik tartibida o'tishini tavsiflovchi holat (yuridik harakatlar majmui) tushuniladi (Sotskova, 2006).

Mazkur ta'rif korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish tushunchasiga berilgan ancha asosli taklif hisoblanadi. Biroq unda ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Masalan, mazkur tarifda huquqiy vorislik uchun asosiy holatlar hisoblangan kreditorlarni ogohlantirish xususidagi qoidalar ham o'z ifodasini topishi lozim edi. Shu munosabat bilan qayta tashkil etish tushunchasiga quyidagicha ilmiy-doktrinal ta'rif berish maqsadga

muvofiq:

– qayta tashkil etish – bir yoki bir necha yuridik shaxs (huquqiy o'tmishdosh) huquq va majburiyatlarini, kreditorlarning huquqlarini qanoatlantirilishi asosida, huquqiy o'tmishdoshning bekor bo'lishi va huquqiy vorisning vujudga kelishi bilan bog'liq holatda boshqa yuridik shaxs yoki shaxslarga (huquqiy voris) huquqiy vorislik tartibida o'tishini tavsiflovchi holat (yuridik harakatlar majmui) tushuniladi.

Mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligi yuridik shaxsni qayta tashkil etish asoslarini belgilamaydi. Faqatgina qayta tashkil etishga birgina asos sifatida muassislar (ishtirokchilar) yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organining qarorini keltiradi. Bunda muassislar yoki yuridik shaxs organining qarori qaysi holat yoki sababga asoslanishi ko'rsatilmaydi. Bunday holat bozor munosabatlari sharoitida fuqarolik huquqining dispozitivlikka asoslanishi, subyektlar tengligi, xususiy ishlarga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'yilmasligi, mulk huquqining daxlsizligi va eng muhimi mulkdorning o'z mol-mulkidan o'z xohishi va manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, foydalaniishi va tasarruf etishi bilan izohlanadi. Yuridik shaxs unga boshqa yuridik shaxsni qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilganida qo'shib olingan yuridik shaxsning faoliyati to'xtatilgani haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritilgan paytdan boshlab yuridik shaxs qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Bu o'rinda yuridik shaxsni qayta tashkil etishda kimning: muassislar va yuridik shaxs organining yoki vakolatli davlat organi va sudning xohish-istagi birinchi o'rinda turishini aniqlab olish lozim. B. Ibratov va N.Sh. Said-Gaziyevalarning fikricha, bunda yuridik shaxs muassislarining xohish-istagi birinchi o'rinda turadi (Ibratov & Saidgozieva, 1998).

H. Rahmonqulovning ta'kidlashicha, bu masalani hal qilishda yangi kodeksda sud-

ga keng vakolat beriladi. Masalan, agar yuridik shaxs belgilangan muddatda qayta tashkil etilmasa, sud vakolatli organning da'vosi bo'yicha yuridik shaxsning boshqaruvchisini tayinlaydi, ushbu vazifani bajarishni unga topshiradi (Rahmankulov, 1997).

Bu o'rinda yuridik shaxsni qayta tashkil etishda birinchi navbatda muassislarning qarori birlamchi xususiyatga ega bo'ladi. Zero, tijoratchi yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda vakolatli davlat organlaridan olinadigan rozilik ham aynan muassislarning qarorlaridan so'ng amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yuridik shaxslarni majburiy tartibda qayta tashkil etish asosan tovar bozoridagi monopolistik faoliyatni cheklash maqsadida ham amalga oshiriladi. Zero, bunda davlat ijtimoiy himoyani ta'minlash hamda fuqarolar huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni amalga oshirish maqsadida majburiy tartibda qayta tashkil etadi. Bu holatda ko'pincha "monopol yuridik shaxs"ni bo'lish yoki ajratish usuli tanlab, tegishli sohadagi yakka, qudratli va eng muhimi, monopol tashkilot o'rniga raqobatni vujudga keltiradigan va bu bilan iste'molchilar manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritadigan ikki yoki undan ko'p yuridik shaxs tashkil etiladi. Binobarin, savdo va xizmat ko'rsatish sohasida monopolistik faoliyatining qisman bo'lsa-da mavjudligi, iste'molchilarning manfaatlari juda katta zarar yetkazadi, bozorlar mavjudligining asosiy sharti bo'lgan raqobatning rivojlanishiga, tovarlarning iste'molchilarga to'g'ridan to'g'ri yetib borishiga sun'iy to'sqinlik qiladi (Said-Gazieva, 2005).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktabrdagi 215-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat korxonalari to'g'risidagi nizomning 31-bandiga muvofiq, davlat korxonasi muassis qaroriga ko'ra, tegishli ravishda Davlat mulk qo'mitasi yoki uning hududiy boshqarmasi bilan kelishgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yoxud sud qaroriga binoan qayta tashkil etilishi mumkin.

Muassis yoki yuridik shaxs organining qarori ushbu subyektlarning subyektiv huquqlari bo'lib, qonunda to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilmaganligi uchun ular o'z qarorlarini hech qanday sabab yoki holat bilan asoslamasliklari mumkin. Bunda faqatgina muassis yoki ta'sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxsning organi yuridik shaxsni qayta tashkil etish haqida qaror qabul qilib, qayta tashkil etish usulini tanlaydi.

Korporativ huquq subyektlari qayta tashkil etilganda uning huquq va burchlari boshqa yuridik shaxsga o'tadi. Huquq va burchlarning o'tish tartibi huquqiy vorislik masalalari yuridik shaxsni qayta tashkil etish usullariga qarab turlicha bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra qayta tashkil etish yuridik shaxs muassislarning qarori bilan, aniqrog'i ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Biroq tijoratchi tashkilotlarga nisbatan qonun hujjatlarida majburiy tartibda qayta tashkil etish hollarda ham ko'zda tutilgan. Fuqarolik kodeksining 49-moddasi 2-qismida majburiy tartibda qo'shib olish qoidalar mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxsni bo'lish yoki uning tarkibidan bir yoxud bir necha yuridik shaxsni ajratib chiqarish shaklida uni qayta tashkil etish vakil qilingan davlat organlarining qarori bilan yoxud sud qarori bilan amalga oshiriladi.

Agar yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari), ular vakil qilgan organ yoki yuridik shaxsning o'z ta'sis hujjatlari bilan qayta tashkil etishga vakil qilingan organi yuridik shaxsni vakolatli davlat organining qarorida belgilangan muddatda qayta tashkil etmayotgan bo'lsa, sud mazkur davlat organining da'vosi bo'yicha yuridik shaxsning boshqaruvchisini tayinlaydi va unga ushbu yuridik shaxsni qayta tashkil etishni topshiradi. Boshqaruvchi tayinlangan paytdan boshlab unga yuridik shaxsning ishlarini boshqarish vakolatlari o'tadi. Boshqaruvchi sudda yuridik shaxs nomidan harakat qiladi, taqsimlash balansini tuzadi va uni yuridik shaxs-

larni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan ta'sis hujjatlari bilan birga ko'rib chiqish uchun sudga topshiradi. Sudning ushbu hujjatlarni tasdiqlashi yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun asos bo'ladi.

Qonunda belgilangan hollarda yuridik shaxslarni qo'shib yuborish, qo'shib olish yoki o'zgartirish shaklida qaytadan tashkil etish vakolatli davlat organlarining roziligi bilangina amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi holatlarga asoslanib yuridik shaxslarni qayta tashkil etish orqali tugatishda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib ko'pincha ixtiyoriy usulda qayta tashkil etish qo'llanadi. Biroq davlat organlari iste'molchilar manfaatlarini nazarda tutib qonun hujjatlari nazarda tutilgan hollarda tijoratchi yuridik shaxslarni majburiy tartibda qayta tashkil etishni amalga oshirishlari mumkin.

Korporativ huquq subyektlari qayta tashkil etilganda hamma vaqt topshirish hujjati va taqsimlash balansi tuziladi. Har bir shaxs uchun qayta tashkil etishning o'ziga xos tartibi va o'ziga xos qoidalari belgilansa-da, Fuqarolik kodeksi topshirish hujjati va taqsimlash balansiga nisbatan umumiy qoidalarni belgilaydi. Bunda bo'lish va ajratishda taqsimlash balansi tuzilsa, qo'shib yuborish, qo'shib olish va o'zgartirishda topshirish hujjati tuziladi.

S.S. Gulyamovning fikricha, qo'shib yuborish shaklidagi qayta tashkil etishni amalga oshirishda quyidagi bosqichlardan ketma-ket o'tish lozim (Rakhmankulov & Gulyamov, 2004):

1. Qo'shib yuborishda ishtirok etuvchilar bilan qo'shib yuborish to'g'risidagi shartnomani tuzish;

2. Qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan har bir jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etish to'g'risida, qo'shib yuborish shartnomasini va o'tkazish dalolatnomasini tasdiqlash haqidagi qaror qabul qilinish;

3. Qo'shib yuborishda ishtirok etayotgan jamiyat aksiyadorlarining qo'shma umumiy

yig'ilishida yangi vujudga kelayotgan jamiyat ustavini tasdiqlash va kuzatuv kengashini saylash;

4. Qo'shib yuborishda birlashib ketgan qimmatli qog'ozlarni chiqarishni davlat ro'yxatidan o'tkazish va qimmatli qog'ozlarni chiqarishning natijalari haqidagi hisobot.

Darhaqiqat, qo'shib yuborish to'g'risidagi shartnoma ham fuqarolik huquqidagi shartnomalardan biri hisoblanadi. Bu turkumdagi shartnomalarning mavjudligi hozirgi kunda ham yuridik adabiyotlarda ko'plab uchraydi.

Bu o'rinda yuridik shaxslarni qo'shib yuborish tartibi har bir yuridik shaxs turi uchun shu yuridik shaxsning huquqiy maqomi, huquq va muomala layoqati, uning umumiy va o'ziga xos belgilari, ustav va nizomiga muvofiq turlicha bo'ladi. Lekin, Fuqarolik kodeksi qo'shib olishga nisbatan yuridik shaxslar uchun bitta umumiy qoida qo'shib olinganda huquqiy vorislik qoidasini belgilaydi. Unga ko'ra, yuridik shaxslar qo'shib yuborilganida ulardan har birining huquq va burchlari topshirish hujjatiga muvofiq yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

Qayta tashkil etish bilan yuridik shaxslar bekor bo'lishining keyingi usuli qo'shib olish hisoblanadi. Qo'shib olish tushunchasiga Fuqarolik kodeksi ta'rif bermasa-da, huquqiy adabiyotlarda "qo'shib olish" tushunchasi atroflicha tahlil etilgan va ko'pchilik olimlar qo'shib olishga nisbatan deyarli bir xildagi fikrni bildirishadi. Ayrim olimlarning fikricha, qo'shib olish qo'shib yuborishning alohida holati bo'lib, bunda bitta yuridik shaxsga ikkinchisi qo'shiladi. Bunda ikkinchi yuridik shaxs bekor bo'lsa, birinchisi o'zining mavjudligini saqlab qolgan holda faqatgina o'z faoliyati doirasini kengaytiradi yoxud o'z faoliyatining turini o'zgartiradi. Bu holat, albatta, ushbu yuridik shaxsning huquq layoqati mazmunida belgilagan tartibda ifodalanadi (Tumakov, 2009).

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, qo'shib olish – mavjud korxonaning tarkibiga bosh-

qasini biriktirish bo'lib, bunda biriktirilayotgan korxonaning mavjudligi barham topadi (Mitus, 2010).

I.B. Zokirovning ta'kidlashicha, yuridik shaxsning qo'shilishida uning huquq va majburiyatlari uni qo'shib olayotgan yuridik shaxsga o'tadi va qo'shilgan yuridik shaxs o'zining mustaqil ravishda ish olib borishini bekor qiladi (Zakirov, 2009).

A. Shukrullayevning fikricha, bir yoki bir necha yuridik shaxsni barcha huquqlari va majburiyatlarini o'tkazish yo'li bilan boshqasi tomonidan qo'shib olinishi qayta tashkil etish shakli hisoblanadi (Shukrullaev, 1999).

S.S. Gulyamovning e'tirof etishicha, qo'shib olishda bir yuridik shaxs o'zining mavjudligini saqlab qolgan holda, o'z faoliyatini bekor qilgan boshqa yuridik shaxsni qo'shib oladi va bunday holat tegishli organlarda rasmiylashtirishni talab qiladi (Gulyamov, 2004).

Yuqorida bayon etilgan ta'riflarning barchasi bitta umumiy holatdan, bir yoki bir necha yuridik shaxslarni o'z faoliyatlarini tugatib, huquq va majburiyatlarini bitta yuridik shaxsga o'tkazish yo'li bilan birlashishlari holatidan kelib chiqib, qo'shib olish usuliga ta'rif berishadi. Fuqarolik qonunchiligida "qo'shib olish" usulini "birlashtirish" atamasi bilan nomlash holatlari uchraydi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 49-50-moddalarida qayta tashkil etishning bu usuli aniq va qat'iy ravishda "qo'shib olish" deb nomlansa, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 97-moddasida va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasida qayta tashkil etishning bu usuli "birlashtirish" deb nomlanadi.

Bu o'rinda qayta tashkil etishning bu usuli (yuqoridagi ikki qonunda nomlanganidek "birlashtirish" emas, Fuqarolik kodeksining 49-moddasi talablari asosida "qo'shib olish")ga "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risi-

da"gi Qonunda to'g'ri ta'rif berilgan. Shu munosabat bilan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 97-moddasi va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasi nomlanishini o'zgartirish va "jamiyatni qo'shib olish" – deb nomlash hamda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 97-moddasi mazmunini Fuqarolik kodeksining 49-moddasi talablariga mos ravishda "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasidagi kabi tahrirda ifodalash lozim.

Qo'shib olish aksiyadorlik jamiyatlari-da (AJ), mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda (MCHJ) va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarda (QMJ)larda o'xshash holda kechadi va o'ziga xos umumiylik kasb etadi. Biroq bu o'rinda AJlar qo'shib olinganda qimmatli qog'oz hisoblangan aksiyalarni birlashtirish masalasini hal qilib olishlari lozim bo'ladi. AJlarda birlashtirilayotgan jamiyat va birlashtirib olayotgan jamiyat birlashish to'g'risida shartnoma tuzadilar, unda birlashishning tartibi va shartlari, shuningdek, birlashtirilayotgan jamiyatning aksiyalarini birlashtirib olayotgan jamiyatning aksiyalari va (yoki) boshqa qimmatli qog'ozlariga ayirboshlash tartibi belgilab qo'yiladi. Har bir jamiyatning kuzatuv kengashi birlashishda ishtirok etayotgan o'z jamiyatining umumiy yig'ilishi hukmiga birlashish tarzida qayta tashkil etish to'g'risidagi va birlashish shartnomasini tasdiqlash haqidagi masalani kiritadi. Birlashtirilayotgan jamiyat kuzatuv kengashi o'tkazish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risidagi masalani ham aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hukmiga havola etadi.

Mazkur jamiyatlar aksiyadorlarining qo'shma umumiy yig'ilishi ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Aksiyadorlarning qo'shma umumiy yig'ilishida ovoz berish tartibi

birlashish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

MCHJ va QMJlarda esa birlashtirish shaklida qayta tashkil etishda ishtirok etuvchi har bir jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi bunday qayta tashkil etish to'g'risida, birlashtirish to'g'risidagi shartnomani tasdiqlash haqida qaror qabul qiladi. Birlashtirilayotgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi esa topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to'g'risida ham qaror qabul qiladi.

Birlashtirishda ishtirok etuvchi jamiyatlarda ishtirokchilarining qo'shma umumiy yig'ilishi birlashtirilayotgan jamiyatning ta'sis hujjatlariga jamiyatning ishtirokchilari tarkibi o'zgarishi, ularning ulushlari miqdorlarini belgilash bilan bog'liq o'zgartishlar, birlashtirish to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan boshqa o'zgartishlarni kiritadi. Shuningdek, zarurat bo'lganda boshqa masalalar qatorida birlashtirilayotgan jamiyatning organlarini saylash to'g'risidagi masalalarni ham hal etadi. Bunday umumiy yig'ilishni o'tkazish muddatlari va tartibi birlashtirish to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

Fuqarolik kodeksida belgilangan qayta tashkil etishning keyingi shakli "bo'lish" hisoblanadi. Bo'linganda yuridik shaxs tugatilib, uning o'rniga ikki yoki undan ortiq yuridik shaxs tashkil topadi (Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, 2010). Ayrim mutaxassislar bo'lish monopolistik faoliyatni cheklash maqsadida tegishli davlat organi tomonidan amalga oshirilishini ta'kidlasa (Gutnikov, 2014), J. Yuldashev agar yuridik shaxs birlashmalarini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarni "qo'shib yuborish" "birlashtirish" to'g'risida qaror qabul qilgan shaxslar yoki organlar monopoliyaga qarshi davlat organidan rozilik berish uchun iltimosnoma bilan murojaat qilishlari, bundan tashqari birlashayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning har biridan asosiy faoliyat turlari, ularning tegishli tovar bozorida ulushi va birlashmaga kirishiga roziligi

to'g'risida ma'lumotlar taqdim etishi lozimligini bildiradi (Yuldashev, 2004).

Korporativ huquq subyektlarini bo'lish ham qayta tashkil etishning boshqa usullari kabi muassislar yoki ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan yuridik shaxs organlarining qaroriga muvofiq yoxud qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda davlat organlari va sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Odatda nima uchun "bo'lish" amalga oshirilayotganligining sabablari talab qilinmaydi. Biroq bo'lish yuridik shaxs faoliyatini kengaytirish va yirik soliqlardan qochish maqsadida hamda ishtirokchilar va muassislarning yuridik shaxs mol-mulkini o'zaro taqsimlab olishlari natijasida amalga oshiriladi.

Qayta tashkil etishning bo'lish shakli haqidagi qoidalar "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonunlarda kengroq yoritilgan. Yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlarida qayta tashkil etish shakllarining umumiy tarzda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Xulosa

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etishga oid fuqarolik qonunchiligida faqatgina umumiy qoidalar belgilangan. Shu bilan birga, yuridik shaxslarning alohida turlariga oid bo'lgan qonunlarda ham yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning umumiy prinsiplari ifodalangan xolos. Bu esa o'ta murakkab jarayon bo'lgan qayta tashkil etishni amalga oshirishda, bu jarayonni to'liq ishlashda ko'plab qiyinchiliklar va turli xildagi yondashuvlarga sabab bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan qayta tashkil etish jarayoni uchun xos bo'lgan barcha holatlarni huquqiy jihatdan to'liq tartibga soluvchi qonun hujjatlarini belgilash va Qayta tashkil etish to'g'risidagi nizomni qabul qilish lozim.

Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib, mazkur soha qonunchiligining tarqoq

holda ekanligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Korporativ huquq subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish lozim.

REFERENCES

1. Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. (2010). (Vol. 1, 343 p.). Tashkent: Vector-Press. <https://www.osce.org/files/f/documents/8/7/74875.pdf>
2. Diver, E. P. (2002). *Legal regulation of reorganization of commercial organizations* (In Russian). [PhD thesis]. Moscow. <http://www.dslib.net/civil-pravo/pravovoe-regulirovanie-reorganizacii-kommerche-skih-organizacij.html>
3. Gulyamov, S. S. (2004). Some problems of reorganization processes of joint stock companies in Uzbekistan (In Russian). *Review of the Legislation of Uzbekistan*, 4, 13. Tashkent.
4. Gutnikov, O. V. (2014). Codification of norms of corporate legislation on the liability of managers for losses caused to legal entities (In Russian). *Journal of Russian Law*, 1. <https://cyberleninka.ru/article/n/kodifikatsiya-norm-korporativnogo-zakonodatelstva-ob-otvetstvennosti-upravlyayuschih-za-ubytki-prichinennye-yuridicheskim-litsam/viewer/>
5. Ibratov, B., & Saidgozieva, N. (1998). Entrepreneurship guarantees (In Uzbek). *Independence and Reporting*, 2, 21. Tashkent.
6. Mitus, I. A. (2010). Legal consequences of mergers and acquisitions of commercial organizations, carried out through reorganization in the form of merger or consolidation (In Russian). *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 5, 36. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-posledstviya-sliyaniy-i-pogloscheniy-kommercheskih-organizatsiy-osuschestvlyae-myh-putem-reorganizatsii-v-forme-sliyaniya-ili/viewer/>
7. Rahmankulov, H. R. (1997). *General description and comments on the first part of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan* (In Uzbek). Tashkent: Economy and Law World.
8. Rakhmankulov, H. R., & Gulyamov, S. S. (2004). *Corporate Law* (In Russian) (pp. 394–395). Tashkent: TSIL.
9. Said-Gazieva, N. Sh. (2005). Protection of the rights of consumers in the field of public services (In Uzbek) (p. 5). Tashkent: TSIL.
10. Shapkina, G. S. (2002). New in Russian Joint-Stock Legislation (changes and additions to the Federal Law "On Joint-Stock Companies"). *Vestnik VAS RF*, 2, 64. Moscow. <http://lawlibrary.ru/article1120755.html/>
11. Shukrullaev, A. (1999). Legal basis of reorganization of agricultural enterprises (In Uzbek). *Economy and Law*, 6, 48.
12. Sotskova, A. V. (2006). *Some issues of reorganization of joint-stock companies* (In Russian) (pp. 42–43). Moscow: Yuridicheskiy Mir.
13. Tumakov, A. V. (2009). *Merger, joining and takeover of credit organizations: civil-law aspects* (In Russian) (p. 15). [Abstract of PhD thesis]. Moscow. <http://www.dslib.net/civil-pravo/slijanie-prisoedinenie-i-poglowenie-kreditnyh-organizacij-grazhdansko-pravovye.html/>
14. Yuldashev, J. I. (2004). Joint-stock companies - as a subject of civil law (In Uzbek) (142 p.). Tashkent: TSIL.
15. Zakirov, I. B. (2009). *Civil law of the Republic of Uzbekistan* (In Uzbek) (58 p.). Tashkent: Adolat.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2024-yil maxsus son

VOLUME 8 / SPECIAL ISSUE / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.SN.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, M. Sharifova,

Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: K. Abduvaliyeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 16.02.2024-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 21,15 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 21.

TDYU tipografiyasida chop etildi.